

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**R.A.Mamajonov**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati ..... 547

**B.A.Pulatov**

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lif-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari ..... 550

**K.I.Marayimova**

Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ..... 554

**N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva**

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentiligini rivojlantirish usullari ..... 559

**D.I.Asqarova**

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari ..... 563

**M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari ..... 571

**M.Q.Jabborova**

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamонавиғи sifatiga erishish omillari ..... 574

**FALSAFA****A.A.A.Qambarov**

"Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari ..... 581

**I.M.Arzimatova**

Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'mi ..... 585

**D.E.Normatova**

Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati ..... 590

**I.A.Asatulloev**

Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari m'a'naviy hayotining qiyosiy tahlili ..... 595

**T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov**

Korrupsiaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limi jihatlari ..... 599

**S.S.Evatov**

Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdag'i aqidaviy masalalarni o'rganishdaga o'mi ..... 604

**I.Y.Toirov**

Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarini o'rganish muammolari ..... 608

**A.M.Rasulov**

Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili ..... 612

**A.A.Sayitxonov**

Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'mi ..... 616

**F.A.Yuldashev**

Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests ..... 620

**S.P.Tojiboyev**

Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili ..... 627

**B.X.Mirzraximov, B.T.Shokirov**

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari ..... 633

**M.A.Abduxamidov**

Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlarga munosabatining tahlili ..... 637

**SIYOSAT****J.A.Dadaboyeva**

Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari ..... 640

**A.A.Ganiyev**

Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati ..... 645

**TARIX****B.A.Usmonov**

"Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir ..... 650



## TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM OLİSH KOMPETENTİLIGINI RIVOJLANТИRISH USULLARI

### МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

### METHODS OF DEVELOPING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING COMPETENCY

**O'rinovala Nilufar Muhammadovna**

Farg'onan davlat universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi,

**Tillabayeva Guljahan Ilhomjon qizi**

Farg'onan politexnika instituti stajor-tadqiqotchisi

#### **Annotatsiya**

Ushbu magolada ta'lim sifatini yaxshilash va bu jarayonda talabalarini kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'lim hamda o'z-o'zini boshqarishning dolzarb masala ekanligini asoslangan. Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligining tarkibiy qismi, mohiyati va mustaqil ta'limi tashkil etish tamoyillari yoritib berilgan. Talabalarning mustaqil ta'lim olishini rivojlantiruvchi bir necha metodlardan baxslashuv, ijodiy tahlil, brainstorming, selfstanding, UFALAZ, va Think-Pair-Share kabilar keltirilgan va ularning bosqichlari tushuntirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantiruvchi metodlar mohiyati ochib berilgan va ilmiy tahlil qilingan. Mustaqil ta'lim haqida ilmiytadqiqot olib borgan quyidagi olimlarning N.A. Muslimova, D.F. Jalolova, R.X. Djo'rayev, S.T. Turg'unov, E.A. Saricheva va V.V. Yakushevlar fikrlari keltirilgan. Shu bilan birgalikda, olyi ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishi zamonaviy o'quv amaliyatining muhim elementi bo'lib, talabalar mustaqillikni, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va o'qiyotgan fanlar bo'yicha bilimlarini chiqurlashtirish imkonini beradi. Tadqiqotlar natijasi va statistik ma'lumotlarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki: mustaqil ta'lim olish orqali talabalar bilimlarni chiqur o'zlashtirishga, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga erishishlari mumkin. Olyi ta'lim muassasalarida joriy etilgan kredit-modul tizimi jarayonida mustaqil ta'limga ajratilgan soatlar hajmining kattaligini hisobga olgan holda uning qay darajada dolzarbligi ko'rish mumkin.

#### **Аннотация**

В основе данной статьи лежит тот факт, что самостоятельное образование и самоуправление являются актуальным вопросом в повышении качества образования и в процессе формирования профессиональной компетентности обучающихся. Объясняются компоненты, сущность и принципы организации самостоятельного обучения студентов. Обсуждение, творческий анализ, мозговой штурм, самостоятельная позиция, УФАЛАЗ и «Подумайте-пара-поделитесь» - вот некоторые из методов, которые развивают самостоятельное обучение учащихся, и их этапы объясняются. Также раскрыта и научно проанализирована сущность методов, развивающих компетентность самостоятельного обучения. Представлены мнения следующих ученых, проводивших исследования по самостоятельному образованию: Н.А. Муслимова, Д.Ф. Джалолова, Р.Х. Тургунова, Е.А. Саричева и В.В. В то же время самостоятельная работа студентов вузов является важным элементом современной образовательной практики, который позволяет студентам развивать самостоятельность, критическое мышление, углублять знания по изучаемым предметам. Основываясь на результатах исследований и статистических данных, можно сказать, что: посредством самостоятельного обучения студенты могут добиться глубокого усвоения знаний, развития творческого и самостоятельного мышления. Учитывая количество часов, отведенных на самостоятельное обучение при внедренной в вузах кредитно-модульной системе, можно убедиться, насколько это актуально.

#### **Abstract**

This article is based on the fact that independent education and self-management are an urgent issue in improving the quality of education and in the process of forming the professional competence of students. The components, essence and principles of organizing independent education of students are explained. Discussion, creative analysis, brainstorming, self-standing, UFALAZ, and Think-Pair-Share are some of the methods that develop students' independent learning and their stages are explained. Also, the essence of the methods that develop the competence of independent learning has been revealed and scientifically analyzed. The opinions of the following scientists who conducted research on independent education: N.A. Muslimova, D.F. Jalolova, R.Kh. Dzhorayev, S.T. Turgunov, E.A. Saricheva and V.V. Yakushev are presented. At the same time, the independent work of students in higher education institutions is an important element of modern educational practice, which allows students to develop independence, critical thinking, and deepen their knowledge of the subjects they are studying. Based on the results of research and

statistical data, it can be said that: through independent education, students can achieve deep assimilation of knowledge, development of creative and independent thinking. Taking into account the amount of hours allocated to independent education in the course of the credit-module system introduced in higher education institutions, one can see how relevant it is.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lif, tamoyil, metod, kompetentlik va intellektual salohiyat.

**Ключевые слова:** самостоятельное образование, принцип, метод, компетентность и интеллектуальный потенциал.

**Key words:** independent education, principle, method, competence and intellectual potential.

## KIRISH

Rivojlangan va rivojlanish yo'lida borayotgan davlatlarni siyosiy va iqtisodiy tarafdan tahlil qiladigan bo'lsak, yagona o'xshashlik ularning har birida ta'limga bo'lgan e'tibor hamda yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlardadir. Chunki ta'limga kiritilgan sarmoyalar hech qachon samarasiz bo'lmaydi. Davlatning ertangi kuni o'sha davlatda ta'lif olayotgan yoshlarga bog'liq. Yoshlarning bilimli bo'lishi esa albatta o'z ustida mustaqil ishlay olish faoliyatiga bog'liq. Shuning uchun barcha oliy ta'lif muassasalarida talabalarning olayotgan bilimlari va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishini taminlash uchun turli xil kreativ pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda dars mashg'ulotlarini olib borish talab qilinmoqda.

Mustaqil ta'lif orqali talabalarning intellektual salohiyati shakllanadi va rivojlanadi. Ta'lif sifatini yaxshilash va ularni kasbga to'g'ri shakllantirishda mustaqil ta'lif hamda o'z-o'zini boshqarishning o'mni katta hisoblanadi. Chunki xalqaro ta'lif sistemasiga asoslanadigan bo'lsak ham o'quv jarayonlarining ko'p qismini mustaqil ta'lif tashkil etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lif olish kompetentligi rivojlangan talabalarda ijodkorlik yuqori darajada shakllangan bo'ladi. Oliy ta'lifning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsad va vazifalaridan biri bu-har bir talabani biror bir sohaning yetuk mutaxassisni bo'lib shakllanishi uchun ularni o'z-o'zini rivojlanirishga, mustaqil ravishda bilimini ko'paytirishga, innovatsion faoliyatga ega bo'lgan ijodiy shaxsiyatni shakllantirishga yo'naltirishdan iborat. Ta'lif tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar va yaratilayotgan shart-sharoitlarni hisobga olgan holda yangilanishlar har bir talaba uchun individual yondashib ishlashni talab qiladi. Mustaqil ta'lifning mazmunini talabalarga bilim berish jarayonida ularni o'z holiga tashlab qo'yish, ularga topshiriq va yuklamalarni kamaytirish kabi tushunmaslik joiz, chunki bu faoliyat o'qituvchilar tomonidan doimiy ravishda nazoratga olib boshqariladigan talabalarning interaktiv faoliyatidir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mustaqil ta'lif haqida ko'plab olimlar o'z fikrlarini turli xil ko'rinishda ifodalaydilar, quyida ba'zi fikrlarni keltiramiz.

N.A.Muslimovning fikricha, "Mustaqil ta'lif-bilimlarni o'zlashtirish, tasavvurlarni rivojlantirish tushunchalari, ko'nikmalari va malakalarini hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining subyektiv maqsadga muvofiq, muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir".

D.F.Jalolovaning fikricha, "Ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishda ijodiy ishlar va mustaqil faoliyat yuritish o'z-o'zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil tafakkuri va o'z nuqtai nazariga ega bo'lmagan talaba ijodkor bo'la olmaydi, mustaqil fikr yurita olmaydi".

R.X.Djo'rayev va S.T.Turg'unovlarning ta'kidlashicha, "Mustaqil ta'lif –bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tarbiyasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakat, bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil fikrash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi".

E.A.Saricheva va V.V.Yakushevlarining fikricha, "Mustaqil ta'lif –bu o'quv faoliyatining eng muhim shakli, chunki ta'lifning bu shaklida talaba bilish jarayonlarini mustaqil ravishda hal qila oladi. Ushbu ta'lif shaklini amalga oshirish uchun talabalarda maqsad sari yo'nalanlik, tashkilotchilik, o'z-o'zini nazorat qila olish va maqsadga intiluvchanlik kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirish zarur". [1, 74 – bet]

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentligining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Kommunikativ kompetentlik-bu talabalarning mustaqil ishlash faoliyatidagi o'zaro aloqalar, bilimlar, ko'nikmalar va tajribalarni o'z ichiga olgan qobiliyatlarini umumlashtiruvchi kommunikativ xususiyat.

## PEDAGOGIKA

Raqamli kompetentlik-talabalarning mustaqil ishlash faoliyatida axborot texnologiya vositalaridan foydala olish imkoniyatlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda individual qiziqishlar xilma-xilligi va ijodiy qobiliyatlar o'zgaruvchanligining amalda qo'llanilishi. [2, 97 – bet]

Adaptiv kompetentlik-talabalarda kasbiy ko'nikmalarining rivojlanganligi holatida mustaqil ishlash faoliyatining ta'lif sohasidagi malaka talablariga asoslanganligi bilan kasbiy faoliyatga moslashuv jarayoni.

### NATIJALAR

Talabalarning mustaqil ishlash kompetentligini tashkil etishda bu tizimni tashkil etuvchi omil ya'ni o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligisiz yakuniy natijaga erishib bo'lmaydi. Oliy ta'lif muassalarida joriy etilgan kredit-modul ta'lif tizimida talabalarning mustaqil ishlash kompetentligini rivojlantirishning nazariy ahamiyati shundan iboratki, mustaqil ta'lif olishni tashkil etish, talabalarning o'quv va kognitiv faoliyatini samarali va yuqori darajada bo'lismiga yordam berish. Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentligini rivojlashtirish an'anaviy va masofaviy ta'lif olish jarayonida ham birdek muhimdir. Mustaqil ta'lifning samaradorligi oshirish har bir talabaning o'ziga bog'liq jarayon bo'lib, bunga o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash orqali erishish mumkin.

An'anaviy ta'lif jarayonida talabalarni mustaqil ishlashga undaydigan asosiy kuch sifatida o'qituvchini ko'rsatish mumkin. Chunki har bir fan o'qituvchilar tomonidan talabalarga mustaqil ish mavzulari beriladi va mustaqil ish topshirish uchun jadvallar tuziladi. Hamda mavzular yuzasidan o'rganilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lish uchun o'qituvchilar tomonidan talabalarga darslik, ma'ruza matnlari, o'quv va uslubiy qo'llanmalar beriladi, bular orqali talabalar berilgan mavzularga tayorgarlik ko'radi. Tashkil etilgan mustaqil ta'lif jadvallari asosida har bir talabaning mustaqil ishlashini o'qituvchi nazorat qiladi. Bu esa talabalarni o'z bo'sh vaqtidan samarali va oqilona foydalanishga undaydi.

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentligini takomillashtirish, kelajakda muvaffaqiyatlari kasbiy faoliyat uchun chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lismiga imkon beradi. O'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlashini tashkil etish, bilim olish va olingan bilimlarni mustahkamlash o'quv jarayonidagi eng samarali yo'nalishdir.

Talabalarning mustaqil ishlash kompetentligini rivojlantirish maqsad-jarayon-natija ya'ni maqsaddan natijaga eltuvchi jarayonni tashkil etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, mustaqil ta'lif olishni rivojlantiruvchi turli metodlar mavjud bo'lib, ularga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: *baxslashuv, ijodiy tahlil, brainstorming, selbststanding, UFALAZ, va Think-Pair-Share*.

### MUHOKAMA

*Brainstorming* (inglizcha *aqliy hujum*) metodi bu fikrlash jarayonini tashkil etish va ularni yozish uchun yordam beradigan metod hisoblanadi. Ya'ni biror bir berilgan mavzu yuzasidan fikrlarning ko'pligini va har bir talabaning mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildirishini anglatadi. Bu metod orqali talabalar o'z fikrlarini erkin va qo'rqlay bayon etishlari mumkin ya'ni har bir talabaning fikri noto'gri deb aytilmaydi va qabul qilinadi.

*Selbststanding* (hemischa *shaxsiy ishini yurituvchi*-birovning yordamidan holi, mustaqil degan ma'nolarni anglatadi. *Selbständiges Lernen*-mustaqil o'rganish jarayonida talabalar berilgan vazifalarga o'z kuchi bilan birovning ko'magisiz yondashadi. Berilgan materialni qanday, qancha vaqtida va qay holatda tadqiq etishini talabaning o'zi belgilaydi. Bu usul ko'pgina davlatlarda rivojlangan bo'lib maktab davridayoq o'quvchilarga joriy etiladi. Bu orqali o'quvchi va talabalarda mustaqil ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlantirish mumkin.

*UFALAZ* (nemischa *ma'lumotlarni umumlashtirish*) metodi ham mustaqil ta'lif olish jarayonini tashkil etish uchun eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, u 6 bosqichda amalga oshiriladi. Bu metoddan talabalarga berilgan matn ko'zdan kechiriladi, keyingi bosqichda turli xil savollar shakllantiriladi ya'ni bu matnning ma'nosi qanday, undan nimalarni o'rgansa bo'ladi, qaysi ma'lumotlar yangi kabi. Uchinchi bosqichda talaba har bir savollarga berilgan matnning qayeridan javob topishi mumkin ekanligini aniqlaydi, to'rtinchchi bosqichda savollarga javob topadi, beshinchchi bosqichda topilgan javolarni yozib oladi. Va nihoyat, so'nggi bosqichda o'zlashirilishi kerak bo'lgan bilimlarini umumlashtiradi va egallaydi. Bu metod orqali belgilangan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish mumkin.

Yana bir samarali metodlardan biri bu *Think-Pair-Share* (inglizcha o'ylash-juft-bo'lishish) hisoblanadi. Bu metod orqali talabalar nafaqat mustaqil ta'lif olishni balki guruh va jaomalarda ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantirishlari mumkin. Bu metod hamkorlikda o'qib o'rganish metodlaridan biri bo'lib, uch boshqichda amalga oshiriladi. Bu metodning ma'nosini tushunish uchun metod nomini so'zma-so'z ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishning o'zi yetarli bo'ladi. Ya'ni think-o'ylash, fikrlash, pair-juft, share esa bo'lishish degan ma'nolarni anglatadi. Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni tushunishimiz mumkinki, bu metoddha avval, talabalar berilgan mavzu yoki topshiriqni yakka tartibda o'rganishadi va fikr yuritishadi, keyingi bosqichda o'rgangan bilimlarni boshqa talabalarga bilan o'rtoqlashadi va so'nggi bosqichda olingen bilimlarni guruhning barcha a'zolari bilan bo'lishadi va muhokama qiladi. [3, 115 – bet]

Talabalarning mustaqil ishlari quyidagi tamoyillarga asoslanadi: individuallik, maqsadli rejalashtirish va shaxsiy-faoliyat yodashuvi. Talabalarning mustaqil ishlarining samaradorligi ko'p jihatdan uni nazorat qilishning faol usullari mavjudligi bilan belgilanadi. Mustaqil ta'lifni shakllantirish texnologiyasi-bu kredit-modul tizimli o'quv jarayonida uning shaxsiy ehtiyojlari va talablarini hisobga olgan holda talabaning yo'nalishini loyihalashning tizimli jarayoni.

#### XULOSA

Jahondagi rivojlangan davlatlardagi oliy ta'lif muassalarida mustaqil ta'lif olish kompetentligini takomillashtirish kreativ texnologiyalari amalga tatbiq etilmoqda. Shu qatori respublikamizda ham so'nggi yillarda ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri zamon talabi bo'lgan yetuk va malakali kadrlarni ishlab chiqarishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilmoqda. Kerakli kadrlarni tayyorlash va ularni ish bilan ta'minlash jarayoni doimo dolzarbdir. Agar talaba mustaqil ishlashni o'rgansa, faqat auditorida berilgan bilimlar bilan cheklanib qolmasdan o'z dunyoqarashini kengaytirsa, ko'proq kitob o'qisa bunday bo'lajak mutaxassislar albatta yurtimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladi. Mustaqil ta'lif olish kompetentligini rivojlantirishda uning tamoyillari va bosqichlariga mos holda harakat qilgan o'quvchi va talabalar o'z oldilariga qo'ygan maqsadga albatta erisha oladilar.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G.A.Qayumova "Raqamli ta'lif muhitida talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish". Toshkent-2023.
2. G.A.Nazarulova "Kredit-modul tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lif olish imkoniyatlarini takomillashtirish". Toshkent-2023
3. N.R.Saitqulova "Pedagogika oliy ta'lif muassasalarida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish texnologiyalari". Chirchiq-2022
4. O'ranova N. M., Yo'Ldosheva D. A. Q. Oliy o'quv yurti talabalarida kreativ kompetentlikni rivojlantirishda faol ta'lif texnologiyalaridan foydalanishning mazmuni va samarali yo'llari //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №.
5. O'ranova N. M. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIVLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 9. – C.
6. G.Tillabayeva "Taym-menejment texnologiyanisi rivojlantirish bosqichlari". Mugallim uzlusiz bilimderi ilmiy-metodologik jurnal. Nukus-2024 3-son.
7. qizi Tillabayeva G. I. TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI. – 2024.
8. G.Tillabayeva "Maxsus pedagogika va maktabgacha ta'lifning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Farg'on-a-2024.